

R. XAITBOYEV

EKOLOGIK TURIZM



TOSHKENT


338.48(07)
x-14

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI**

RAXMATULLA XAITBOYEV

EKOLOGIK TURIZM

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
tomonidan 5610200 – Mehmonxona xo'jaligini tashkil etish
va boshqarish, 5610300 – Turizm (xalqaro va ichki turizm)
ta'lim yo'nalishi talabalari uchun o'quv qo'llanma sifatida
tavsiya etilgan*



Toshkent — 2018

UO‘K: 38.48(075.8)

KBK: 65.43я7

X 17

Xaitboyev R

Ekologik turizm.[Matn]: /R.Xaitboyev. O‘quv qo‘llanma. — Toshkent: 2018. — 248 b.

Qo‘llanmada yozilgan mavzular ekoturizmning barcha savollarini qamrab oluvchi 7 qismga bo‘linadi: 1-ekoturizmning mohiyati, tushunchasi, obyekti, maqsadi va vazifalari; 2-ekoturizmning nazariy metodologik va ijtimoiy-iqtisodiy asoslari; 3-ekoturizmning resurslari; 4-ekoturizmni rivojlantirishdagi muammolar va yechimlar; 5-O‘zbekistonda ekoturizmni rivojlantirishda xalqaro ekoturizm modellaridan foydalanish yo‘llari; 6-xorij davlatlaridagi ekoturizm; 7-ekoturizm marshrutlarini ishlab chiqish, ekoturizm marshrutining reklamasi va turistlarning hayoti xavfsizligini ta‘minlashdan iborat.

O‘quv qo‘llanma Samarqand iqtisodiyot va servis institutining Ilmiy Kengashida ko‘rib chiqildi va nashr qilishga tavsiya qilindi (1-son bayonnoma, 28-avgust 2015-y.)

UO‘K: 38.48(075.8)

KBK: 65.43я7

Mas‘ul muharrir:

M.Q. Pardayev — i.f.d., prof.

Taqrizchilar:

SamISI, — I.S. Tuxliyev, i.f.d., professor

SamDU, — A. Abdulqosimov, g.f.d., professor

QCHEITI, — M.M.Maxmudov, q/x.f.d., professor

ISBN 978-9943-5519-5-4

© «Barkamol fayz media» 2018.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning «O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2016-yil 2-dekabrda PF-4861-sonli Farmoni mamlakatimizda turizmni rivojlantirishda tub burilishni, yangi bosqichning zaminini, turizmda istiqbolli islohotlarning sharoitlarini yaratdi ¹. Prezident farmonida:

“Mamlakatda turizmni jadal rivojlantirish, mavjud ulkan turizm salohiyatidan yanada to'liq va samarali foydalanish, an'anaviy madaniy-tarixiy turizm bilan birgalikda turizmning boshqa salohiyatli turlarini – *...ekologik turizmni... ichki, kirish va chiqish turizmini kompleks rivojlantirishning milliy va hududiy dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish*” belgilangan.

Bu farmon mamlakatimizda turizmning barcha turlarini bir tekis rivojlantirish masalalarini tatbiq qilishga, turizmni hududiy va mintaqaviy rivojlantirish uchun asosiy dastur bo'lib xizmat qiladi. Shu nuqtayi nazardan va “Farmon”da ekologik turizmni rivojlantirish alohida ta'kidlanganligi ham, ekologik turizmni jadal rivojlantirishning jiddiy muammolarini aniqlashimiz va bu muammolarning yechimlarini ishlab chiqishning ilmiy-amaliy tadqiqotlarini kuchaytirishimizning vaqti keldi.

Hozirgi vaqtda ekologik turizm “Turizm va ekskursiya jahon kengashi” ning va «Butunjahon turizm tashkiloti»ning ma'lumotlari bo'yicha jadal rivojlanib borayotgan turizm industriyalarining biri hisoblanadi. Ya'ni ekologik turizmning jahon turizm industriyasidagi ulushi—10%dan to 20% gachani, ekologik turizm xizmatlaridan olinadigan daromad 55 mlrd. dollar va uning yillik o'sishi 30% ni tashkil qilmoqda. Shuningdek, istiqboldagi

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida”gi Farmoni, 2016-yil, 2-dekabr, PF-4861-son. (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2016-y., 49-son, 558-modda, 2017-y., 1-son, 3-modda).

2020-yilgacha ekologik turizm jahon turizmidagi asosiy strategik yo'nalishlaridan biri bo'lib boradi va albatta bu yo'nalishlar O'zbekiston Respublikasiga ham kirib keladi.

O'zbekistonda ekoturizmning rivojlanishi nafaqat ma'naviyatimiz, ilm-fan, madaniyat, ma'rifat, tabiatni muhofaza qilish, ekoturistlarni jalb qilish, biologik xilma-xillikni saqlash muammolarini hal qilishga balki, shu bilan birga iqtisodiy masalalarni, mahalliy xalqimizning ijtimoiy-iqtisodiy sharoitini yaxshilash, yangi ish joylari bilan ta'minlash, mamlakatimiz iqtisodiyotining o'sishiga katta hissa qo'shadi. Mamlakatimiz dunyoda ekologik turizm resurslariga boy davlatlar qatorida turadi va Markaziy Osiyoda, dunyo mamlakatlarining o'zaro aloqalarini geografik jihatdan bog'lovchi davlatdir. Shu sababli ichki, xalqaro turistik oqim va ekoturistik oqim ham bizda kuchayishining juda katta, salohiyatli imkoniyatlari bor.

Ekologik turizmni rivojlantirishdagi ko'plab muammolar ham mamlakatimizda ekoturizmni rivojlantirishga kirishganimizdan keyingina aniqlanmoqda. Hozirga kelib, Respublikamizda ekologik turizmni rivojlantirishda yechimlari jiddiy bo'lgan muammolari ham yuzaga chiqmoqda. Bu muammolarning birinchi navbatda o'z yechimini kutib turgani, ekoturizm uchun malakali kadrlar tayyorlash hisoblanadi.

Hozirgacha ekologik turizm bo'yicha DTS talablari asosida darslik, o'quv qo'llanma ham nashr qilingan emas. Universitet va institutlarda ham ekologik turizm bo'yicha oliy malakali mutaxassislar tayyorlanayotgan emas. Mamlakatimizda ekologik turizmni rivojlantirishning dolzarbligi hisobga olinib, institut va universitetlarda tayyorlanayotgan turizm sohasiga oid mutaxassislarga "Ekologik turizm" fani o'qitilmoqda. Ushbu zaruratni hisobga olib mazkur o'quv qo'llanma tayyorlandi.